



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEKISTON -POKISTON MUNOSABATLARIDA SAVDO - IQTISODIY HAMKORLIK ALOQALARINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Rashidova Aziza Aminboyevna

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, doktoranti

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston va Pokiston o‘zaro savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalarini iqtisodiy asoslari, bugungi kundagi holati hamda rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan. Muallif, O‘zbekistonning Pokiston munosabatlarida savdo-iqtisodiy, o‘zaro savdo aylanmasi,eksport va import salohiyatlari, investitsiya,transport infratuzilmasi sohalardagi hamkorlikni amaliy natijalarini manbalar asosida yoritib bergan. Shuningdek, O‘zbekiston va Pokiston savdo-iqtisodiy hamkorlikni afzalliklari haqida mulohaza yuritgan. Maqolada Xalqaro va milliy ilmiy manbalar, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumoti hamda davriy matbuot materiallari hamda vazirliklarning rasmiy internet saytlaridan ham unumli foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: Savdo-iqtisodiy, rivojlanish tendensiyasi, o‘zaro savdo aylanmasi, eksport, import, investitsiya, transport infratuzilmasi, iqtisodiy hamkorlik.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В УЗБЕКСКО-ПАКИСТАНСКИХ ОТНОШЕНИЯХ

Рашидова Азиза Аминбоевна

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, докторант

Аннотация

В статье анализируются правовые основы, текущее состояние и тенденции развития торгового-экономического сотрудничества между Узбекистаном и Пакистаном. Автор, опираясь на источники, освещает практические результаты сотрудничества в области торговли и экономики, взаимного товарооборота, экспортно-импортного потенциала, инвестиций, транспортной инфраструктуры в узбекско-пакистанских отношениях. Также рассматриваются преимущества торгового-экономического сотрудничества между Узбекистаном и Пакистаном. В статье также эффективно используются международные и национальные научные источники, материалы периодических изданий и официальные сайты министерств.

Ключевые слова: Торговля и экономика, тенденции развития, взаимный товарооборот, экспорт, импорт, инвестиции, транспортная инфраструктура, экономическое сотрудничество.

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC COOPERATION IN UZBEK-PAKISTANI RELATIONS

Rashidova Aziza Aminboyevna

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Doctoral Student

Abstract

The article analyzes the legal basis, current state and development trends of trade and economic cooperation between Uzbekistan and Pakistan. The author, based on sources, sheds light on the practical results of cooperation in the fields of trade and economic, mutual trade turnover, export and import potential, investment, transport infrastructure in Uzbekistan-Pakistan relations. He also discussed the advantages of trade and economic cooperation between Uzbekistan and

Pakistan. The article also makes effective use of international and national scientific sources, periodical press materials, and official websites of ministries.

Keywords: Trade and economic, development trends, mutual trade turnover, export, import, investment, transport infrastructure, economic cooperation.

XX asrning so'nggi o'n yilligida, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab, iqtisodiyotning bozor munosabatlariga asoslangan infratuzilmasini yaratish, mamlakatlar va turli iqtisodiy tashkilotlar bilan yaqin aloqalarni yo'lga qo'yishga kirishdi. O'zbekiston tashqi siyosiy masalalarni hal qilishda milliy manfaatlardan kelib chiqib, har tomonlama o'ylangan, pragmatik va konstruktiv yondashuvlarga tayanuvchi suveren tashqi siyosat olib bordi [1]. O'zbekiston bilan tarixan yaqin va do'stona hamkorlik aloqalari uzoq tarixga ega Pokiston Islom Respublikasi bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy hamda transport-kommunikatsiya sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi.

Shuni alohida aytish kerakki, O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik ikki davlatning iqtisodiy o'sishi, mintaqaviy barqarorlik va strategik integratsiyasi uchun muhim omil hisoblanadi. Geografik jihatdan Markaziy va Janubiy Osiyo chorrahasida joylashgan ushbu davlatlarning strategik mavqei, boy energetik resurslari va iqtisodiy salohiyati o'zaro savdo aylanmasi hajmini oshirishga imkon yaratadi. So'nggi yillarda O'zbekistonning strategik hamkori bo'lgan Pokiston bilan ko'plab bitimlar, shartnomalar va memorandumlar imzolangan. Ular O'zbekistonning resurslarga boyligi hamda Pokistonning iliq dengiz portlariga chiqish imkoniyatlaridan foydalanish, ikki mamlakatning ulkan iqtisodiy salohiyatidan foydalanishga qaratilgan [2]. Ushbu tadqiqotda ikki davlatning savdo-iqtisodiy sohasining hozirgi holati, o'zaro savdo aylanmasi dinamikasi yillar kesimida, eksport va importdagi asosiy mahsulotlar nomenklaturasi, biznes forumlarning olib borilishi hamda istiqbolli hamkorlik aloqalari tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada O'zbekistonning Pokiston bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalarini tahlil qilishda tarixiy-tahliliy metod, statistik tahlil, ekonometrik tahlil, kontent tahlil hamda tizimli yondashuv metodlari asosida yondashildi va xulosalar chiqarildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston–Pokiston munosabatlariga oid mavjud adabiyotlar ko'rib chiqilganda, ikki tomonlama aloqalarning savdo-iqtisodiy sohasida keng qamrovli tadqiqotlar yetishmasligi kuzatiladi. Ba'zi tadqiqotlarda o'zaro madaniy almashinuvlar yoki mintaqaviy xavfsizlik masalalari o'rganilgan. Maqolada mavzuga oid bo'lgan bir necha adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, tadqiqot olib borildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning murojaatnomasi [3], Laziz Rahmatovning *Dunyo mamlakatlari: Avstraliyadan Hindistongacha* asarida Pokiston iqtisodiyoti, tashqi siyosati hamda Pokiston bilan O'zbekiston o'zaro savdo aylanmasi, mintaqaviy hamkorlik doirasidagi faoliyati xususida ma'lumot berilgan [4]. Muhammad Idrees va Shabina Wakeelning *Diplomatic Foundations and Economic Prospects: A Comprehensive Analysis of Pakistan-Uzbekistan Relations (2000–2020)* maqolasida ikki davlatning iqtisodiy ko'rsatkichlari, eksport va import dinamikasi qiyosiy tahlil qilinadi [5]. D. Butayev va M. Hasanovning *O'zbekiston va Pokiston savdo faoliyati* nomli maqolasida ikki mamlakat o'rtasida mahsulot almashinuvi, iqtisodiy tuzilmalari, eksport va import salohiyati tahlil qilingan [6]. S. Bo'ronovning *O'zbekiston geosiyosati* o'quv qo'llanmasida Pokistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlarini hamda Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekistonning geosiyosati yoritib berilgan [7]. Shuningdek, S.Sh. Sharopova, R.B. Asadova, F.U. Usarovlarning dissertatsiyalaridan unumli foydalanildi va xulosalar chiqarildi.

NATIJARLAR VA ULARNING TAHLILI

O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan geografik va demografik markaz sifatida ajralib turadi. Uning mustaqillik e'lon qilgan dastlabki kunlaridan boshlab ko'plab xorijiy

davlatlar tomonidan tan olingani kuzatildi. Mustaqillikning birinchi o'n yilligida O'zbekiston 125 davlat tomonidan tan olindi va 40 dan ortiq davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi [8]. Ayniqsa, bir necha asrluk tarixiy yaqinlikka ega bo'lgan Pokiston Islom Respublikasi bilan diplomatik aloqalar 1992 yilda rasman o'rnatildi. Bu munosabatlar barcha sohalarida amalga oshirilib, xususan, savdo-iqtisodiy hamkorlik kuchli strategik hamkorlikka aylandi. Bu O'zbekistonni Markaziy Osiyoda Pokistonning eng yirik hamkoriga aylantirdi.

Davlat rahbarlarining rasmiy tashriflari davomida barcha sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlikning huquqiy asoslari yaratildi. Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri N. Sharifning O'zbekistonga 1992 yil iyun oyida amalga oshirgan rasmiy tashrifi hamda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning 1992 yil avgust oyida Pokiston Islom Respublikasiga rasmiy tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga jiddiy turtki bergan muhim voqea bo'ldi [9].

- O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Pokiston Islom Respublikasi Hukumati o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim (Toshkent shahri, 1992 yil 27 iyun);
- O'zbekiston Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasi o'rtasida davlatlararo savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim (Toshkent shahri, 1992 yil 27 iyun);
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Pokiston Milliy banki o'rtasida bitim (Islomobod shahri, 1992 yil 13 avgust);
- O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Pokiston Islom Respublikasi Hukumati o'rtasida pochta va telekommunikatsiya sohasida hamkorlik to'g'risida bitim (Islomobod shahri, 1992 yil 13 avgust);
- O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Pokiston Islom Respublikasi Hukumati o'rtasida o'zaro investitsiyalarni himoya qilish va kapital qo'yilmalarni himoya qilish to'g'risida bitim (Islomobod shahri, 1992 yil 13 avgust) [9].

Ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy bitim va shartnomalar imzolandi. Natijada o'zaro savdo aylanmasi 1992 yilda 4,3 million AQSh dollari miqdorida bo'lgan bo'lsa, 2000 yilda bu ko'rsatkich 8,5 million AQSh dollariga yetdi. O'zbekistonning Pokistonga eksport tarkibi sabzavot va ildizmevalar, paxta tolasi, kimyoviy tolalar hamda moyli urug'lar va mevalardan iborat bo'lgan bo'lsa, import tarkibiga charm buyumlari, kimyoviy iplar, farmatsevtika mahsulotlari, sport anjomlari va qandolat mahsulotlari kirgan [10].

Ikki davlat savdo-iqtisodiy hamkorligining o'sishi va uni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2006 yil 2 mayda kichik va xususiy tadbirkorlik sohasida hamkorlik to'g'risida bitim imzolanishi, tadbirkorlarga imkoniyatlar berilishi natijasida o'zaro savdo yanada yaxshilandi. O'zbek paxtasi Pokiston bozorlarida talabi yuqori mahsulot bo'lib, O'zbekistonning paxta eksportidagi eng muhim hamkoriga aylandi. 2001–2016 yillar davomida savdo aylanmasi 35 551,0 ming AQSh dollariga yetdi [11]. Eksport tarkibiga plastmassa, moyli urug'lar va mevalar, kimyoviy shtapel, organik kimyoviy moddalar kirgan bo'lsa, import mahsulotlari sitrus mevalar, tamaki xomashyosi va farmatsevtika mahsulotlaridan iborat bo'lgan.

Mintaqaviy muammolar ta'siri va savdo aloqalaridagi to'siqlar mavjudligi sababli ikki davlat o'zining to'liq iqtisodiy salohiyatidan foydalana olmadi. O'zbekiston va Pokiston munosabatlarida keyingi to'qqiz yil davomida savdo-iqtisodiy aloqalar jadal sur'atlarda rivojlandi. 2017–2025 yillar davomida o'zaro tovar aylanmasi hajmi 12,2 barobarga oshib, 2025 yil yakuniga ko'ra 445,9 million AQSh dollariga yetdi. Xususan, Pokistonga eksport 32 barobarga o'sib, 325 million AQSh dollarini tashkil etdi. Pokistondan O'zbekistonga import mahsulotlari 4,6 barobarga oshdi va natijada 120,9 million AQSh dollariga yetdi.

Ayniqsa, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yilda Pokistonga amalga oshirgan tarixiy tashrifi davomida ilk bor Imtiyozli savdo bitimi imzolandi. Unda 17 turdagi eksport va import mahsulotlari belgilandi. Transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni alohida nazoratga olishga kelishib olindi. Asosiy maqsad – mahsulotlarni davlatlar o'rtasida to'siqsiz va eng qisqa muddatlarda yetkazib berish tizimini yaratish deb belgilandi [12]. Imtiyozli shartnoma

va ikki tomonlama tranzit savdo bitimining imzolanishi O‘zbekistonni Markaziy Osiyoda Pokistonning eng yirik hamkoriga aylantirdi. Bugungi kunda imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim doirasida tovarlar sonini oshirish, fitosanitariya va bojxona tartiblarini soddalashtirish hamda elektron savdo platformalarini integratsiya qilish orqali iqtisodiy hamkorlikning istiqbolli rejalari ishlab chiqilmoqda.

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekiston va Pokiston savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalari 1992 yildan boshlangan bo‘lib, ikki davlat o‘rtasida bir qator manfaatli shartnoma va bitimlar imzolangan. O‘zaro savdo aylanmasi iqtisodiy salohiyat darajasida uzoq vaqt rivojlanmagan bo‘lsa-da, ikki davlatning geografik joylashuvi, iqtisodiy jihatdan bir-birini to‘ldiruvchanligi va mintaqaviy integratsiyadan manfaatdorligi mavjuddir.

Imtiyozli savdo bitimining imzolanishi, eksport va importda 17 turdagi mahsulot nomlarining belgilanishi hamda ko‘plab bitimlarning imzolanishi natijasida keyingi yillarda savdo aylanmasida ijobiy saldogga erishildi. Bu nafaqat ikki mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshiradi, balki mintaqaviy bozorda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga ham imkon beradi. Kelgusida mazkur aloqalarni yanada yaxshilash, Pokiston kapitali ishtirokidagi korxonalar sonini oshirish, o‘zaro savdoni kengaytirish va investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston tarixi. VII jild: O‘zbekiston diplomatiyasi tarixi. – T.: Ma’naviyat, 2023. – 386 b.
2. Idrees M., Wakeel Sh. Diplomatic foundations and economic prospects: a comprehensive analysis of Pakistan–Uzbekistan relations (2000–2020) // *International Journal of Human and Society*. – 2024. – Vol. 4. – № 2 (aprel–iyun). – P. 162.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti. – URL: <https://president.uz/ru/lists/view/4057> (murojaat qilingan sana: ko‘rsatilmagan).
4. Rahmatov L. Dunyo mamlakatlari: Avstraliyadan Hindistongacha. – T.: Yangi kitob, 2019. – 535 b.
5. Idrees M., Wakeel Sh. Diplomatic foundations and economic prospects: a comprehensive analysis of Pakistan–Uzbekistan relations (2000–2020) // *International Journal of Human and Society*. – 2024. – Vol. 4. – № 2. – P. 161–171.
6. Butayev D., Hasanov M. O‘zbekiston va Pokiston tashqi savdo faoliyati // *Journal of Marketing, Business and Management*. – 2026. – Vol. 4. – № 7 (yanvar). – P. 2–122.
7. Bo‘ronov S. O‘zbekiston geosiyosati: o‘quv qo‘llanma. – T.: Effect-D, 2021. – 82 b.
8. Nuriddinov E. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 17 b.
9. O‘zbekiston Milliy arxivi. M-37-fond, 1-ro‘yxat, 1773-yig‘ma jild. – B. 229.
10. O‘zbekiston Milliy arxivi. M-37-fond, 1-ro‘yxat, 1773-yig‘ma jild. – B. 230.
11. O‘zbekiston Milliy arxivi. M-37-fond, 1-ro‘yxat, 1773-yig‘ma jild. – B. 233.
12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. – URL: <https://t.me/uzstataxborot> (murojaat qilingan sana: ko‘rsatilmagan).
13. Xalq so‘zi gazetasi. – 2026-yil 5-fevral. – № 24.